Аннотация: В данной статье анализируются роль и перспективы зелёного маркетинга в текстильной промышленности. В ходе исследования были изучены научные источники, отчёты международных организаций, а также практический опыт, и дана оценка эффективности таких направлений, как экологическое сырьё, выращивание органического хлопка, использование возобновляемых источников энергии, производство с нулевыми отходами и экологическая сертификация. Результаты количественного и качественного анализа показали, что стратегии зелёного маркетинга являются важным фактором повышения конкурентоспособности предприятий, укрепления доверия потребителей и достижения устойчивого развития. На примере Узбекистана также наблюдаются положительные практики внедрения данных стратегий, однако существует необходимость в технологическом обновлении, финансовых ресурсах и укреплении нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, устойчивое развитие, текстильная промышленность, экологические инновации, органический хлопок, возобновляемая энергия.

KIRISH

2024-yilda global to‘qimachilik bozori hajmi 1,11 trillion AQSH dollariga baholanib, 2033-yilga kelib 1,61 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich 2025–2033-yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik 4,2% o‘shish sur‘atini (CAGR) ifodalaydi. To‘qimachilikka bo‘lgan talabning ortishi “fast fashion” tendensiyalari, urbanizatsiya jarayonlari va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining daromadlari o‘shishi bilan bog‘liqdir. Iste‘molchilarning afzalliklari zamonaviy, qulay va arzon kiyimlarga qaratilgani sababli chakana savdoda kiyim-kechak mahsulotlariga talab yanada kuchaymoqda. Shu bilan birga, yashil marketing (green marketing)ga ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Bu mahsulotlarni ekologik foydali jihatlari asosida ishlab chiqish va targ‘ib qilishni, jumladan, qayta ishlangan xomashyolardan foydalanish, karbon izini kamaytirish va energiya samaradorligini ta‘minlash kabi tashabbuslarni o‘z ichiga oladi.

To‘qimachilik sanoati global miqyosda eng yirik tarmoqlardan biri bo‘lib, iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, biroq ishlab chiqarish jarayonlarida katta miqdorda chiqindi, zararli emissiya va kimyoviy moddalardan foydalanishi sababli ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suv resurslarining ortiqcha sarfi, zaharli moddalar qo‘llanilishi va yuqori karbon izi tufayli soha barqarorlik jihatidan ko‘plab tanqidlarga uchramoqda. Bunga javoban, iste‘molchilarning ekologik masalalarga nisbatan xabardorligi ortib borayotgani va hukumatlar tomonidan tartibga soluvchi bosimlar kuchaygani oqibatida to‘qimachilik korxonalari yashil marketing strategiyalarini faol qo‘llashga o‘tmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi to‘qimachilik sanoatida yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan marketingning innovatsion konsepsiyalarini o‘rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda korxonalar faoliyatida amaliy qo‘llash yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: yashil iqtisodiyot va marketing innovatsiyalari tushunchasini nazariy tahlil qilish; marketingning innovatsion konsepsiyalarini to‘qimachilik sohasi bilan bog‘liq holda o‘rganish; O‘zbekistonda yashil marketing amaliyotlarining joriy holatini tahlil etish; ekologik sertifikatlash, ekologik mahsulotlar va raqamli texnologiyalar kabi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini baholash; mavjud muammo va imkoniyatlarni aniqlash hamda istiqbolli marketing strategiyalari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil marketing konsepsiyasi dastlab Ottman (1993) tomonidan keng ilmiy muhokamaga kiritilgan bo‘lib, u ekologik xabardorlikning oshishi bilan korxonalarning marketing strategiyalarida barqarorlik elementlari muhim o‘rin egallashini ta‘kidlagan. Peattie (1999) yashil marketingni nafaqat ekologik jihatdan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish, balki butun ta‘minot zanjiri va iste‘molchi xulq-atvorini qamrab oluvchi kompleks yondashuv sifatida tavsiflagan. Chen (2010) esa yashil brend imiji va iste‘molchilarning ekologik qadriyatlarini korxonalar raqobatbardoshligida strategik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bergan. So‘nggi tadqiqotlarda (Kaur, Gangwar & Dash, 2022; Teslim, 2024) yashil marketing strategiyalari va innovatsiyalarining to‘qimachilik sohasida qo‘llanishi, xususan, ekologik sertifikatlash, qayta ishlash va raqamli transformatsiya orqali samaradorlikka erishish imkoniyatlari alohida ta‘kidlangan.

Tekstil sanoatida yashil marketing strategiyalari barqarorlik tamoyillarini ilgari surishda muhim vosita sifatida shakllanmoqda. U ekologik yoriqlash va sertifikatlash (masalan, GOTS¹, OEKO-TEX², bluesign³), hikoyalash

1 **GOTS (Global Organic Textile Standard)** – organik tolalardan tayyorlangan matolar uchun xalqaro standart bo‘lib, ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarishni tasdiqlaydi.

2 **OEKO-TEX®** – tayyor kiyim va tekstil mahsulotlarida inson salomatligi uchun xavfli bo‘lgan kimyoviy moddalar yo‘qligini tekshiruvchi mustaqil sertifikatlash tizimi.

3 **bluesign®** – ishlab chiqarish jarayonida kimyoviy xavfsizlik, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga asoslangan sertifikatlash standarti.

va iste'molchini o'qitish (Patagonia, 2024), aylana iqtisod tashabbuslari (qayta ishlash va upcycling) hamda raqamli shaffoflik vositalarini (Everlane, 2023) o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat iste'molchilarning ishonchini mustahkamlaydi, balki kompaniyalarning bozordagi raqobatbardoshligini ham oshiradi (Ellen MacArthur Foundation, 2022). Shu bilan birga, yashil yuvish (greenwashing⁴) va yuqori xarajatlar kabi muammolar mavjud bo'lsada, innovatsiyalar, hamkorlik va iste'molchilarning ongli tanlovlari orqali barqaror to'qimachilik sanoatini rivojlantirish mumkin (UNEP, 2023).

Valor, Ronda va Abril (2025) ta'kidlaganidek, modada yashil marketing ko'proq iste'molchilarni ekologik masalalarga jalb qilish vositasi bo'lsa-da, u asosan sanoat manfaatlariga xizmat qiladi; mualliflar Norvegiyadagi 41 moda do'konining narrativlarini tahlil qilib, “sayyoraga g'amxo'rlik”, “yangi texnologik rivojlanish” va “kelajakka safar” kabi asosiy barqarorlik hikoyalarini aniqlashgan va xulosalarida moda sanoatidagi yashil marketing ko'pincha barqarorlikni soddalashtirib, uni marketing vositasiga aylantirilishi, biroq yangi qonunlar va iste'molchi talablar uni haqiqiy amaliy o'zgarishlarga majbur qilmoqdaligi haqida ta'kidlab o'tishgan.

O'zbekistonda ilmiy jamoada green marketing masalalari hali keng ko'lamda o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim izlanishlarda ushbu yo'nalishga yaqin yondashuvlar uchraydi. Masalan, Ostonaqulova (2023, green-eco.uz) marketing ta'limini nafaqat texnik bilimlar, balki ma'naviy qadriyatlar va kognitiv yondashuvlar bilan boyitish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa yashil marketing konsepsiyalari uchun muhim axloqiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, Alimxodjayeva (2024, yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz) moda sanoatida marketing samaradorligini baholashda green marketing strategiyalarining brend qiymatini oshirishdagi ahamiyatini qayd etadi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi tadqiqotlarda ekologik iz qoldirish, yashil texnologiyalar va sertifikatlash masalalari hali yetarli darajada o'rganilmagan bo'lsa-da, marketing samaradorligi, iste'molchi xulqi va ma'naviy qadriyatlar integratsiyasi kabi jihatlar asosiy e'tiborda qolmoqda. Bu esa kelgusida green marketingni yanada chuqurroq tadqiq etish uchun nazariy va axloqiy zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda to'qimachilik sanoatida yashil marketingning o'rnini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliy tadqiqotlar asosida nazariy va adabiyotlar sharhi amalga oshirildi.

Tadqiqotda miqdoriy metodlar uyg'unlashtirildi. Miqdoriy qismda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, eksport-import hajmlari, ekologik sertifikatlar mavjudligi va chiqindilarni qayta ishlash darajalari statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. So'ng yashil marketingning O'zbekiston to'qimachilik sohasida ham tutgan ahamiyati va olib borilgan amaliy ishlar ham tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Yashil marketing strategiyalari⁵

Barqaror mahsulot dizayni: Atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan mahsulotlarni ishlab chiqish.

Ekologik qadoqlash: Biologik parchalanadigan yoki qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish.

Energiya tejankor jarayonlar: Yashil ishlab chiqarish amaliyotlarini joriy etish.

Shaffof kommunikatsiya: Ekologik jihatlarni halol tarzda targ'ib qilish.

Iste'molchini o'qitish: Yashil mahsulotlarning foydalari haqida mijozlarga ma'lumot berish.

Hamkorlik: Ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Mazkur jadvalda yashil marketingni amalga oshirish yo'llari yoritilgan. Bunga ekologik toza mahsulot ishlab chiqish, qayta ishlanadigan qadoqlardan foydalanish, energiya tejankor jarayonlar, iste'molchilarni xabardor qilish, ochiq va halol kommunikatsiya hamda ekologik hamkorlik kiradi.

4 **Greenwashing** – kompaniya yoki brendning ekologik jihatdan barqaror emasligiga qaramay, o'z mahsulot yoki faoliyatini “yashil” va ekologik deb ko'rsatish uchun noto'g'ri marketing usullaridan foydalanishi.

5 Muallif tomonidan tayyorlangan jadval

2-jadval. Yashil marketing g'oyalari⁶

Ekologik qadoqlash: Biologik parchalanadigan, qayta ishlanadigan yoki qayta foydalaniladigan qadoqlashga o'tish, chiqindilarni kamaytirish va yashil iste'molchilarga yoqish.

Energiya tejamkor mahsulotlar: Kamroq energiya sarflaydigan mahsulotlarni ishlab chiqish va targ'ib qilish (masalan, LED chiroqlar yoki quyosh energiyasida ishlaydigan qurilmalar).

Barqaror xomashyo manbalari: FSC sertifikatlangan yog'och yoki organik paxtadan foydalanish.


Yashil sertifikatlar: Energy Star, LEED yoki Fair Trade kabi sertifikatlarni olish orqali iste'molchilarning ishonchini oshirish.

Raqamli marketing: Qog'oz sarfini kamaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlar, email va onlayn reklama kabi raqamli kanallardan foydalanish.

Jamoaviy tashabbuslar: Daraxt ekish aksiyalari yoki hududlarni tozalash kabi mahalliy ekologik tashabbuslarda ishtirok etish orqali ijobiy imij yaratish.


2-jadvalda yashil marketingni rivojlantirish bo'yicha amaliy g'oyalar jamlangan. Jumladan, energiya tejavchi mahsulotlar yaratish, barqaror xomashyolardan foydalanish, ekologik sertifikatlarga ega bo'lish, raqamli marketingni keng qo'llash va mahalliy ekologik tashabbuslarda faol ishtirok etish kabi tashabbuslar ilgari surilgan. Ushbu choralar nafaqat atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki iste'molchilarda brendga nisbatan ishonchni mustahkamlash hamda kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi keltirilgan grafikda esa kiyim-kechak bozorining bozor ulushlari va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari tasvirlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda bozor hajmi 1,67 trillion AQSh dollariga baholangan bo'lib, prognozlarga ko'ra 2033-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,97 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Yillik o'sish sur'ati (CAGR) 8,02% atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2021–2023-yillarda o'sish nisbatan sekin bo'lgan, biroq 2024-yildan boshlab keskin o'sish tendensiyasi yuzaga kelgan va 2025-yildan boshlab har yili barqaror o'sish kuzatilmoqda. Shu tarzda, kiyim-kechak bozorining istiqboli barqaror va yuqori salohiyatli bo'lib, yashil marketing tashabbuslarini amaliyotga tatbiq etish uchun qulay sharoit yaratadi.

1-rasm. Kiyim-kechak bozori prognozi⁷

⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan jadval

⁷ Straits Research. Apparel Market Forecast 2025–2033. (www.straitsresearch.com)



2-rasm. Eng yirik to‘qimachilik bozorlari⁸

Xitoy to‘qimachilik sanoati dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi va eksportchi hisoblanadi. Bu soha yirik ishlab chiqarish hajmi (economies of scale) va ilg‘or ishlab chiqarish tizimlari orqali katta afzalliklarga ega. Hukumatning “yashil ishlab chiqarish” siyosati tolalarni tanlash va qayta ishlash jarayoniga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ichki bozor ham tez sur‘atlarda o‘smoqda, bunga moda ixlosmandi yoshlar va shaharsozlik jarayonlari turtki bo‘lmoqda. Ishchi kuchi xarajatlari oshib borayotganligi sababli avtomatlashtirish va sun‘iy intellekt asosidagi ishlab chiqarishga kuchli o‘tish kuzatilmoqda. Shuningdek, sintetik tolalar ishlab chiqarish va yuqori samarali to‘qimachilik mahsulotlariga katta investitsiyalar kiritilmoqda. Xitoy kompaniyalari global miqyosda ham faol bo‘lib, hamkorlik va xorijdagi korxonalarni sotib olish orqali kengaymoqda.

Yashil marketing g‘oyalari to‘qimachilik sohasida qo‘llanilishi

Yashil marketing to‘qimachilik sanoatida ekologik toza xomashyo, energiya va suvni tejash hamda xalqaro standartlarga amal qilish orqali barqaror ishlab chiqarishni ta‘minlaydi. Bu esa korxonalarga bozorda raqobat ustunligi va iste‘molchi ishonchini oshirish imkonini beradi. To‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish jarayoni ko‘plab bosqichlarni o‘z ichiga oladi: avvalo tolalarni ipga yigirish, so‘ng mato tayyorlash va nihoyat, yuvish, bo‘yash hamda pardozlash kabi qo‘shimcha qiymat beruvchi ishlovlarni qo‘llash orqali kiyimlarni tayyorlash.

To‘qimachilikning kimyoviy ishlov berish jarayonida qariyb uch ming xil kimyoviy moddalar va yordamchi vositalar qo‘llaniladi (4-jadval). Bu jarayonlar tozalash, oqartirish, merkserizatsiya, bo‘yash, chop etish va pardozlash bosqichlarini qamrab oladi. Jahondagi bo‘yoq va pigmentlarning 30 foizi shu jarayonlarda ishlatiladi (Niinimäki & Hassi, 2011b). Ushbu moddalar atrof-muhit uchun zararli bo‘lgani sababli ko‘plab mamlakatlarda taqiqlangan. Ularning o‘rniga suv, energiya va kimyo sarfini kamaytiruvchi dasturlar joriy qilinmoqda. Enzimlar va biotexnologiya kabi barqaror texnologiyalar zararli ta‘sirni kamaytirishi mumkin. Masalan, bakterial selluloza asosida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yoki mikroorganizmlar orqali tabiiy pigmentlardan bo‘yoq tayyorlash imkoniyatlari mavjud (Gobalakrishnan et al., 2020; Senthilkannan et al., 2023). Shu tarzda ekologik toza materiallar va bo‘yoqlar ishlab chiqilmoqda.

To‘qimachilik sanoatining tabiat va atrof-muhitga zararini kamaytirish va yashil marketing konsepsiyalarini joriy etish uchun bir necha asosiy yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

Ekologik xomashyolardan foydalanish – Paxta, zig‘ir, kanop va jut kabi tabiiy tolalar biologik parchalanadigan, xavfsiz va ekologik toza hisoblanadi (Kumar & Choudhury, 2018). Shu bilan birga, bambuk, soya va banan asosidagi yangicha tola turlari barqaror alternativ sifatida rivojlanmoqda (Chin et al., 2020).

Organik paxta yetishtirish – Organik paxta pestitsid va kimyoviy o‘g‘itlarsiz, suvni tejash, tuproq unumdorligini saqlash va bioxilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash orqali yetishtiriladi. Bu nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki iste‘molchilar uchun gigiyenik va sifatli mahsulot beradi (Ellis et al., 2012; Goyal & Parashar, 2023).

8 Foydalanilgan manba <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

Qayta tiklanadigan energiya manbalari – Sanoatda ko‘proq quyosh energiyasi, biomassa va gaz kabi muqobil energiya manbalaridan foydalanish karbon izini kamaytiradi. Masalan, paxta chiqindilaridan bioenergiyaga o‘tish issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin (Zabaniotou & Andreou, 2010).

Ekologik toza kiyim ishlab chiqarish – Nol chiqindi (zero-waste) andozalar, energiya tejankor mashinalar va «Lean Manufacturing» usullari chiqindilarni kamaytirib, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi (Rissanen & McQuillan, 2015; Habib et al., 2016).

Umumlashtirib aytganda yashil marketingni to‘qimachilik sanoatiga tatbiq etish ekologik xomashyo, organik ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindini kamaytiruvchi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki brend imijini mustahkamlash va ekologik ongli iste‘molchilarni jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

Yashil marketingning O‘zbekiston to‘qimachilik sohasida tutgan o‘rni

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati yashil marketing yo‘nalishlarini joriy etish bo‘yicha anchagina ijobiy qadamlar tashlamoqda, sertifikatlar, barqaror paxta yetishtirish, eksportning tayyor mahsulotlarga o‘tishi, ijtimoiy jihatlarni hisobga olish.

Biroq, bu jarayon hali to‘la tugamagan. Yashil marketing konsepsiyasining keng qamrovda va chuqur tatbiqi uchun moliyaviy zaruriyatlar, texnologik yangilanish, bilim va malaka oshirish, normativ bazani kuchaytirish kabi elementlar yanada rivojlantirilishi kerak.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yashil marketing konsepsiyasi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. To‘qimachilik sanoati mamlakatning asosiy eksport yo‘nalishlaridan biri bo‘lgani uchun, uning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

GIZ va O‘zbekiston Tikuv-trikotaj sanoati uyushmasi hamkorligida amalga oshirilayotgan “Development of the Green Private Sector in Uzbekistan” loyihasi bunga yorqin misoldir. Loyiha doirasida resurs tejankor ishlab chiqarish jarayonlari joriy qilinib, CO₂ chiqindilarini 10% kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yashil sanoatni rivojlantirish maqsad qilingan.

Bir qator tekstil korxonalari esa ESG⁹ tamoyillari asosida faoliyatini qayta ko‘rib chiqmoqda. Ular organik paxta yetishtirish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, kimyoviy moddalar ishlatilishini kamaytirish orqali barqaror ishlab chiqarishga o‘tmoqda. Kompaniyalar xalqaro ESG forumlarida qatnashib, o‘z tajribasini oshirmoqda.

Texnologik yangiliklar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar energiya va suv tejankorligi, chiqindilarni kamaytirish, ekologik matolar ishlab chiqarish yo‘lida innovatsion texnologiyalarni joriy qilmoqda. Masalan, Indikim Group tabiiy pigmentlardan olingan ekologik bo‘yoqlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda. Bu kimyoviy bo‘yoqlardan farqli ravishda atrof-muhitga do‘st hisoblanadi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari Better Cotton Initiative va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, barqaror paxta yetishtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga e‘tibor qaratmoqda. Bu esa O‘zbekiston mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shuningdek, Eco-Organic Textile LLC kabi kompaniyalar organik paxta yetishtirish va texnologik modernizatsiya orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqishga intilmoqda.

Yashil marketing ijtimoiy tashabbuslarni ham qamrab olmoqda. Masalan, “Green Imkoniyat” dasturi Farg‘ona vodiysida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlab, ularga yashil tadbirkorlik bo‘yicha treninglar va amaliy yordam ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatida yashil marketing ko‘p qirrali rivojlanmoqda. Resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xom-ashyo va texnologiyalardan foydalanish, xalqaro standartlarga qo‘shilish hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish orqali korxonalar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bu esa mamlakatning ekologik barqarorligiga va global bozor oldidagi obro‘sig a ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

3-jadval. To‘qimachilik materiallarini qayta ishlashda qo‘llaniladigan xavfli moddalar

Kimyoviy guruh	Asosiy qo‘llanilish sohasi	Maqsadi	Zararli ta‘siri	Manbalar
AP/APEOs	Oldindan ishlov berish, yuvish va tugatish	Namlatish, yuvish, emulsiyalash	Endokrin buzuvchi, suv muhitiga toksik	(Schlenk va boshq., 2012; Newsted va boshq., 2023)
Xlorofenollar	Tugatish	Konservant, pestitsid	CMR (kanserojen, mutagen va reproduksiyaga toksik)	(Czaplicka va Miel‘yfska, 2007; Igbinosa va boshq., 2013)

9 ESG — kompaniya faoliyatini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari asosida baholovchi yondashuv.

Vodorod peroksid	Oldindan ishlov berish	Oqartirish	Teriga, nafas olish yo‘liga, og‘iz orqali ta’sir; ko‘z uchun xavf	(Ramirez va boshq., 2021)
Azo bo‘yoqlardan taqiqlangan aminlar	Bo‘yash va bosma	Dispers, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, kislota, asosiy va reaktiv bo‘yoqlar	Siydik pufagi saratoni	(Golka va boshq., 2012)
Formaldegid	Tugatish	Qisqarishga chidamlilik	Kanserogenlik va teri sezuvchanligi	(Protano va boshq., 2022; Goossens va Aerts, 2022)
Glyoksal (etanedial)	Tugatish	Qisqarishga chidamlilik	Mutagenlik va teri sezuvchanligi	(Cottrez va boshq., 2020; Zheng va boshq., 2021)
Bo‘yoqlar – kanserogen	Bo‘yash va bosma	To‘g‘ridan-to‘g‘ri, asosiy, dispers bo‘yoqlar	Saraton	(Manzoor va Sharma, 2019)
Dispers bo‘yoqlar – sezuvchanlik	Bo‘yash va bosma	Dispers bo‘yoqlar	Teri sezuvchanligi / allergiya	(Malinauskiene va boshq., 2013)
Og‘ir metallar	Plastmassa qayta ishlash, bo‘yash, bosma / qoplama	Bo‘yoqlar va pigmentlar, ishqoriy moddalar	Reproduksiyaga zarar, kanserogen	(Mishra va boshq., 2010)
Nanobirikmalar	Tugatish	Texnik tugatish ishlari	Og‘iz va nafas olish orqali ta’sir	(Vysloužil va boshq., 2020; Praphawatvet va boshq., 2020)
Organotinlar	Tugatish	PVC, PU qoplamalar	Mutagen	(Hiromori va boshq., 2015)
Mato yumshatgich	Oldindan ishlov berish va tugatish	Yumshatish	Teri sezuvchanligi	(Akioka va boshq., 2022)
PAH (poliaromatik uglevodorodlar)	Bosma, issiqlik stabilizatori va boshqalar	Qora pigment, disperslovchi moddalar	CMR	(da Silva Junior va boshq., 2021)
PFCs	Tugatish	Changga, yog‘ va suvga chidamli	Juda barqaror, qalqonsimon bezga ta’sir	(Bloom va boshq., 2010) ¹⁰

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing to‘qimachilik sanoatida nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish, balki korxonalarning bozor raqobatbardoshligini oshirish va brend imijini mustahkamlashda ham samarali vosita hisoblanadi. Global tajribalar (Patagonia, Everlane, H&M Conscious, Nike Move to Zero) ekologik mahsulotlar va barqarorlik tashabbuslari orqali mijozlarni jalb qilish imkonini yaratgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham organik paxta yetishtirish, energiya va suvni tejash, ekologik sertifikatlash jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Shu bilan birga, yashil marketingni kengroq tatbiq etish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi: Korxonalarda ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish va texnologik modernizatsiyani tezlashtirish; Ekologik sertifikatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash; Iste’molchilar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish uchun samarali kommunikatsiya strategiyalarini qo‘llash; Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazani kuchaytirish va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.

Yashil marketing konsepsiyasini to‘qimachilik sanoatiga keng tatbiq etish O‘zbekistonning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda ekologik xavfsizlikka hissa qo‘shishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ellen MacArthur Foundation. (2022). Yangi to‘qimachilik iqtisodiyoti: Modaning kelajagini qayta loyihalash. Olingan manba: <https://www.ellenmacarthurfoundation.org/a-new-textiles-economy>
2. Everlane. (2023). Radikal shaffoflik. Olingan manba: <https://www.everlane.com/about>
3. Patagonia. (2024). Barqaror materiallar. Olingan manba: <https://www.patagonia.com/stories/sustainable-materials>

10 Foydalanilgan manba <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S219985312400074X>

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi (UNEP). (2023). To'qimachilik sanoatining ekologik izini kamaytirish. Olingan manba: <https://www.unep.org/news-and-stories/story/tackling-textile-industrys-environmental-footprint>
5. Global Organic Textile Standard (GOTS). (n.d.). Standartlar. Olingan manba: <https://www.global-standard.org>
6. OEKO-TEX®. (n.d.). Bizning standartlarimiz. Olingan manba: <https://www.oeko-tex.com>
7. bluesign®. (n.d.). Barqaror to'qimachilik ishlab chiqarish. Olingan manba: <https://www.bluesign.com>
8. Chen, Y. S. (2010). Yashil brend kapitalining drayverlari: Yashil brend imiji, yashil qoniqish va yashil ishonch. Biznes etikasi jurnali, 93(2), 307–319. <https://doi.org/10.1007/s10551-009-0223-9>
9. Kaur, B., Gangwar, V. P., & Dash, G. (2022). Yashil marketing strategiyalari, ekologik munosabat va yashil xarid qilish niyati: Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida ko'p guruhli tahlil. Barqarorlik, 14(10), 6106. <https://doi.org/10.3390/su14106106>
10. Ottman, J. A. (1993). Yashil marketing: Yangi marketing davrining chaqiriqlari va imkoniyatlari. Lincolnwood, IL: NTC Business Books.
11. Peattie, K. (1999). Yashil marketing rejalashtirishida tashqi ko'rinish va mazmun. Strategik Marketing Jurnali, 7(2), 131–148. <https://doi.org/10.1080/096525499346486>
12. Teslim, B. (2024). To'qimachilik sektorida yashil marketing strategiyalari. Innovatsiya va Bilim Jurnali, 9(1), 100606. <https://doi.org/10.1016/j.jik.2024.100606>
13. Valor, C., Ronda, L., & Abril, C. (2025). Barqaror kommunikatsiya janri sifatida ma'naviy dramalar: Uning (dis) funksiyalari tahlili. Makromarketing jurnali, 45(3), 407–431.
14. Ostonaqulova, G. (2023). O'zbekistonda marketing ta'limini ma'naviy qadriyatlar va kognitiv yondashuvlar bilan qayta talqin qilish. Green-Eco.uz. <https://green-eco.uz>
15. Ostonaqulova, G. (2023). Zamonaviy marketing ta'limida akademik mukammallik va ma'naviy qadriyatlarni ulanilishi. Green-Eco.uz. <https://green-eco.uz>
16. Alimxodjayeva, N. (2024). Moda sanoatida marketing samaradorligini baholash uslubi. Yashil-Iqtisodiyot-Taraqqiyot. uz. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
17. StraitsResearch. (2025). Apparel Market Forecast 2025–2033 [Infografika]. 2025-yil 27-sentyabr <https://www.straitsresearch.com>
18. Chin, K., Chen, L., & Ong, S. (2020). Innovative natural fibers for sustainable textiles: Bamboo, soy, and banana fibers as alternatives. Journal of Cleaner Production, 258, 120635. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.120635>
19. Ellis, J. L., Turner, J. D., & Fisher, K. M. (2012). Organic cotton: Environmental and health benefits of sustainable production. Sustainable Agriculture Reviews, 11, 215–230. https://doi.org/10.1007/978-94-007-5449-2_9
20. Goyal, P., & Parashar, A. (2023). Sustainability in cotton textiles: The role of organic farming and eco-friendly production methods. Textile Research Journal, 93(5), 657–670. <https://doi.org/10.1177/00405175221123547>
21. Habib, M., Tokar, T., & Waller, M. A. (2016). Lean manufacturing practices and environmental sustainability: An integrated approach in textile production. International Journal of Production Economics, 182, 431–441. <https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2016.09.018>
22. Kumar, D., & Choudhury, A. K. (2018). Natural fibers and their composites: Environmental advantages for sustainable textiles. Journal of Natural Fibers, 15(2), 174–188. <https://doi.org/10.1080/15440478.2017.1316425>
23. Rissanen, T., & McQuillan, H. (2015). Zero-waste fashion design: A sustainable approach to garment making. Fashion Practice, 7(1), 65–86. <https://doi.org/10.1080/17569370.2014.996917>
24. Zabaniotou, A., & Andreou, I. (2010). Development of alternative energy sources from cotton residues for sustainable agriculture. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 14(6), 1607–1612. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2010.01.015>



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI